

AZIZ NESIN “NOZIK BAROMETR” HIKOYASI TARJIMASINING TAHLILI

Quvonchbek Juraqulov

*TDSHU stajyor-o'qituvchisi Tel: +998939946461; Email:
juraqulovquvonchbek@mail.com Toshkent, O'zbekiston.*

Annotatsiya: *Ushbu tahlilda turk tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjima namunalaridagi yutuq va kamchiliklar atroflicha ko'rib chiqilgan. Tarjimonning umumiy mazmunni yetkazishdagi muvaffaqiyati e'tirof etilgan holda, ayrim nozik detallar va uslubiy xususiyatlarning saqlanmaganligi tanqid qilingan. Personajlar nutqini tarjima qilishda muallif uslubini saqlab qolishning muhimligi ta'kidlangan. Metaforik iboralarni soddalashtirish va so'zlarni noaniq tarjima qilish kabi kamchiliklar tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan. Madaniy moslashuvning muvaffaqiyatli namunasi sifatida maqolning ekvivalentini topish alohida e'tirofga sazovor bo'lgan. Tarjimonning ba'zi o'rinlarda o'z mahoratini ko'rsatishga urinishi ijobiy baholangan bo'lsa-da, ayrim hollarda bu asliyatga zarar yetkazishi mumkinligi uqtirilgan. Tarjima nazariyasiga oid manbalarga tayangan holda, tarjimonning asl matnga sodiq qolishi va uslubiy xususiyatlarni saqlashga ko'proq e'tibor berishi zarurligi xulosa qilingan. Tahlil yakunida tarjima jarayonida aniqlik, uslub va madaniy kontekstga e'tibor berish muhimligi ta'kidlangan. Ushbu tahlil badiiy tarjima sohasidagi muhim masalalarni yoritib beradi.*

Kalit so'zlari: *Aziz Nesin, muallif uslubi, personaj nutqi, tarjima, asliyat, tarjima matni,*

KIRISH

Aziz Nesin ko'pincha hajviy asarlar orqali jamiyatdagi kamchiliklar ustidan kulib ommaga oshkor qilgan adib hisoblanadi. Uning asarlarini tarjima qilishda ham bir qator qiyinchiliklar to'g'ilishi tabii hol deb qaraladi. Bu tadqiqot orqali tarjimonlarning tarjimalarini tanqid qilish emas, balki kelgusi tarjimonlar bu tadqiqot asari bilan tanishib tarjimada e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlarni yana bir bor bilib olishidir. Tarjima jarayonida ko'pgina qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin masalan asliyat tilde bi qisqartma berilsa, tarjimon uni kengaytirib bildiradigan ma'nolarini ham yozib ketgani avfzaldir. Bu haqida tarjimashunos olib Ergash Ochilov shunday fikr bildirgan: “Asliyat tilidagi qisqartmalar (abbreviaturalar) tarjima o'quvchisi uchun tushunarsiz, faqat asliyat uchungina xos bo'lgan hollarda, bu qisqartmalar yonida ularning yoyiq shakli ham berilishi kerak bo'ladi”¹³.

Tarjima jarayonida turg'un birikmalar: ibora, maqol va matal kabi birliklarga duch kelinsa, bunday iboralarni tarjima qilinishi haqida Ergash Ochilov shunday

¹³ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: TDShI, 2014. – B. 140.

usullarni sanab o'tgan: "Frazeologizmlar – turg'un so'z birikmalari: maqol, matal va ibora (idioma)lar. Frazeologizmlar tarjimasida quyidagi usullar qo'llanadi: 1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) muqobil variant topib qo'yish; 3) frazeologizmni aynan, so'zma-so'z tarjima qilish. Har uchala holat ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiy ma'nosini aks ettirish bilan kifoyalanadi"¹⁴. Agar unday ham bo'lmasa "tilida asliyat tilidagi frazeologizmga mos keladigan variant mutlaqo bo'lmasa, u holda frazeologik birlik so'zma-so'z tarjima qilinadi. Muvofiqlikning umuman yo'qligiga asoslangan bunday tarjima kalka usulida tarjima qilish ham deyiladi"¹⁵ deb fikr bildirgan.

Tarjimada milliy o'ziga xos so'zlar: milliy kiyim-kechaklar, ovqat nomlari, urf-odatlar kabilar uchrasa, ularning tarjima qilinishi haqida quyidagicha fikr bildirilgan "Tarixiylik va milliylikning aks etishida eng avval hammaning ko'z oldiga biron-bir millatga xos libos yoki biron davrga tegishli bo'lgan kiyim-kechak va taqinchoqlar gavdalanadi. Bunday so'zlarni tarjima qilayotganda tarjimonni ko'proq o'zga xalq kishisiga tarjima tili sohibi libosini kiygizib qo'yish xavfi kutadi. Milliylik juda nozik tushuncha. Bu borada arzimasa bir xato ba'zida butun bir millat haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirib qo'yishi mumkin. Tarjimada realiya sifatida namoyon bo'luvchi so'zlardan yana bir guruhi kiyim-kechak nomlaridir. Tarjimon asliyat tilida so'zlovchi xalqning o'ziga xos libos va poyafzal turlarini yaxshi bilishi va ularni o'girishda puxta bo'lishi kerak"¹⁶ deydi ustozimiz X. Hamidov.

Turk tili va o'zbek tili bir-biriga yaqin til bo'lgani uchun ba'zi maqollarni so'zma-so'z tarjima qilsa ham ma'no chiqadi, lekin u maqolning o'zbek tilidagi muqobilini topib ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarjimashunos olim X.Hamidov bunga quyidagi misolni beradi: "Ahsan Batur boshga tushganni ko'z ko'radi maqolini "Adolat manzili" asarini tarjima qilish jarayonida basha dusheni goz gorurmush shaklida tarjima qilgan. Aslida buni qo'pol xato deb hisoblash ham adolatdan bo'lmaydi, chunki turk kitobxonini gap nima ekanligini darhol fahmlaydi. Shunga qaramay, maqolning turk tilidagi nutqda faol qo'llanilayotgan basha gelen çekilir ekvivalentini ishlatish maqsadga muvofiq bo'lar edi"¹⁷.

Tarjimashunos olim X.Hamidov bu haqida quyidagicha fikr bildirgan "har bir xalqning o'z e'tiqodi, o'ziga xos milliy, ma'naviy qadryatlari, maqol va matallari uchun asos qilib olingan timsollari, obrazlari bor. Maqol yoki matal boshqa tilga ko'chganda uning shakli emas, mazmuni qayta yaratiladi. O'ziga xos shakli, so'z yoki obrazning asliyat tilida anglatilgan mazmuni ifoda etilmay qolgan matal maqollar boshqa xalq nazarida uni yaratgan xalqning donishmandligidan darak berish o'rniga, uning badiiy tafakkuri taxliti to'g'risida noto'g'ri taassurot qoldirishi mumkin"¹⁸.

¹⁴ O'sha asar. – B. 269.

¹⁵ O'sha asar. – B. 121.

¹⁶ Hamidov X. O'zbek-Turk tarjimachiligining dolzarb muammolari. – Toshkent, 2019. – B. 25.

¹⁷ Hamidov X. O'zbek qissa va romanlari turk tilida. – Toshkent, 2022. – B. 201-202.

¹⁸ O'sha asar. – B. 197-198.

Maqsad va vazifalar: Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, Aziz Nesinning “Nozik Barometr” asari va tarjima matni ko‘rib chiqiladi. Ishning vazifalari quyidagilar:

- Aziz Nesinning “Nozik Barometr” asari tarjimasidagi yutuqlarni aniqlash va uning nima sababdan yutuq sifatida talqin qilinyotganini aniqlash;
- Aziz Nesinning “Nozik Barometr” asari tarjimasida kamchilik deb topilgan jihatlarni o‘rganish va kamchiliklarni bartaraf etishni aniqlash;

Usullar: Aziz Nesinning “Nozik Barometr” asarining asl nusxasi va o‘zbekcha tarjimasi qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot manbasi: Aziz Nesinning “Nozik Barometr” asarining asli va o‘zbekcha tarjimasi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida Aziz Nesinning “Nozik Barometr” asaridagi tarjimada muammoli holatlar: personajlar nutqi, turg‘un iboralar, gap qutulishidagi o‘zgarishlarning tarjimadagi aksi hisoblanadi.

Natija va mulohazalar:

–Sen bir kahramansin! Diye bag‘irdi. [Aziz N. It kuyruğu. 63].

–Qoyilman, mard yigit ekansan! – deya hayqirdi. [Turkiy adabiyot durdonalari. 226].

Yuqoridagi tarjimada tarjima xato chiqqan degan qaror qilish biroz noo‘rin hisoblanadi. Ma’no chiqarib berilgan, lekin bu tarjima olingan gap asar qahramoning jonli nutqi hisoblanadi. Shunday ekan bu gapni tarjima qilinyotganda asliga muvofiq tarjima qilgan maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yozuvchi personajlar nutqiga bir qator qo‘shimcha ma’nolar yuklashi mumkin. Masalan: qahramon ziyoli inson bo‘ladigan bo‘lsa, uning nutqi ravon, nutqida ishlatyotgan so‘zlari tanlab ishlatiladigan, gap qurulishi ham to‘g‘ri qurilgan, nutqi davomida ibratli so‘zlar, maqollar va iboralardan ishlatishning kuzatish mumkin. Yozuvchi mana shunday ma’noni chiqarib berish uchun, bu qahramonning ziyoli qatlam vakili ekanligini to‘g‘ridam to‘g‘ri yozmasdan uning nutqi orqali o‘quvchiga ma’lum qiladi. Aksincha bo‘ladigan bo‘lsa, qahramon ziyoli qatlam vakili bo‘lmasa, uning nutqida ham ko‘cha tili, gap qurulishining chalkash bo‘lishini kuzatish mumkin.

Faqatgina o‘qimishli yoki o‘qimishli emasligi bilan cheklanib qolmasdan qahramonning qaysi mintaqa vakili ekanligini bildirish uchun ham qahramon nutqi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Biror bir asarda asar qahramoni Andijonlik bo‘ladigan bo‘lsa, yozuvchi uning Andijondan ekanligi ma’lum qilmasa ham, Andijon shevasida gapirtirish orqali o‘quvchiga bu haqida ma’lumot beroladi.

Asar qahramonining yoshini ham personajlar nutqi orqali bilib olishimiz mumkin. Qisqacha qilib aytganda ma’no chiqarib berish bilan u asarda muallif uslubini saqlab qolish juda qiyin. Shunday ekan bunday personajlar nutqlarini tarjima qilish jarayonida shu narsalarga e’tiborli bo‘lish kerak. Tarjimon bu gapni quyidagicha tarjima qilganida maqsadga muvofiq bo‘lar edi: Sen qahramonsan! – deya baqirdi.

Tarjima jarayonida qo'chimcha ma'no yuklash orqali yozuvchining uslubiga ziyon keltirish hech gap emas.

Ben o zaman kan damlayan kalemim yüzünden günün birinde içimin kan ağlayacağını aklıma bile getirmeden onu dinliyordum. [Aziz N. İt kuyruğu. 63].

Zahar tomib turadigan qalamim uchun bir kuni zaqqum yutishim mumkinligini o'sha kezda butunlay unutib, shirin so'zlarga mahliyo bo'lib qoldim. [Turkiy adabiyot durdonalari. 226].

Yuqoridagi gapda bir ibora ishlatilgan kan ağlamak iborasi. Bu iboraning ma'nosi quyidagicha: Qon yig'lamoq. Bu ibora o'zbek tilida ham xuddi turk tilidagi kabi biror voqea qarshisida juda katta qayg'u, alam va hasrat chekish ma'nosini bildiradi. Bu ibora, sodir bo'lgan hodisa inson qalbida chuqur yaralar qoldirganini va kuchli azob berayotganini ifodalash uchun ishlatiladi. Haqiqatda ko'zdan qon kelishi mumkin bo'lmasa-da, bu ifoda boshdan kechirilgan g'am-alamning shiddati va og'irligini ta'kidlaydi. Tarjimon bu iborani zuqqum yutmoq iborasi bilan tarjima qilgan. Bu iboraning ma'nosi: og'ir, yoqimsiz, achchiq yoki g'azabni keltiradigan vaziyatga majbur bo'lish, uni qabul qilishga to'g'ri kelish ma'nosini anglatadi. Zaqqum jannatda o'sadigan juda achchiq va zaharli daraxt nomi bo'lib, uni yutish juda azobli va qiyin bo'ladi. Shuning uchun bu ibora, insonning o'z irodasiga zid ravishda, ko'ngilsiz bir holatga chidashiga ishora qiladi. Tarjimashunos olim G'.Salomov esa bu haqida quyidagicha "...shunday maqol va matallar borki, ulardan kelib chiqadigan hikmat hijjalab qilinadigan tarjima ichidagi so'zlarda o'z in'ikosini topmaydi. Ana shunday maqol matallar juda ko'p. Shunday qilib, boshqa tillardagi ko'plab maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni ularning ona tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro'yobga chiqarishimiz mumkin"¹⁹. Bu misolda asliyat tildagi iboraning o'zbek tilidagi muqobili bor edi.

Zuqqum yutmoq iborasi ham ma'no jihatdan yomon tarjima emas, lekin o'zbek tilida ham qon yig'lamoq iborasi bo'la turib boshqa ibora bilan tarjima qilishning hojati yo'q edi. Onu dinliyordum iborasi shirin so'zlarga mahliyo bo'lib qoldim shaklida tarjima qilingan. Asliyatda hech qanaqa ibora yo'q bo'lishiga qaramay tarjimada ibora bilan tarjima qilingan. Buni tarjima xatosi emas, belki tarjimonning mahorati deyishimiz mumkin. Tarjima tarixida mana shunday mohir tarjimonlarning mohirona tarjimalari orqali asliyat tilini unchalik mashhur asar bo'lmagan asarlarning tarjimasi juda ham mashhur bo'lib ketgan. Tarjima jarayonida turg'un iboralarni tarjimasi juda muhim hisoblanadi. "Tilning asl qaymog'i, uning o'ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasini qanday ekanligini ko'rsatadigan, boshqa tillar o'rtasida tutgan o'rnini tayinlaydigan muhim omil bo'lgan narsa – undagi maqol, matal, idiom avas shu kabi ko'chma ma'noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning g'oyat murakkab va

¹⁹ Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: TDSHI, 2014. – B. 140.

muhim ish ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazaryasining asosiy problemalari qatoriga kiritishga sabab bo'lmoqda"²⁰.

O beni görmemeşti. İki arkadaşına benim için şöyle anlatıyordu: [Aziz N. İt kuyruğu. 63].

U meni ko'rmadi. Yonidagi ikki sherigiga uqtiryotgan gaplari qulog'imga chalindi. [Turkiy adabiyot durdonalari. 226].

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek asliyatda ibora yo'q lekin tarjimada ibora bilan tarjima qilingan misollar uchrab turadi, buni tarjimoning mahorati deb izoh berilgan edi. Hamma vaqt ham buning tarjimoning mahorati deyishimiz no'rin bo'ladi. Yozuvchining o'ziga xos uslubini yo'qqa chiqarishga ham xizmat qilishi mumkin. Chunki asar yozuvchiga tegishli tarjimon uni xohlagancha o'zgartirishga haqqi yo'q. Qulog'imga chalinmoq iborasi tarjima jarayonida qo'shib tarjima qilingan. "Qulog'imga chalinmoq" iborasi biror xabar, gap yoki ovozning tasodifan eshitilishi, ma'lumotning qandaydir yo'l bilan yetib kelishi ma'nosini anglatadi. Bu ibora ko'pincha kutilmagan yoki bilmagan holda eshitilgan narsalar haqida gapirganda ishlatiladi. O beni görmemeşti gapi u meni ko'rmadi shaklida tarjima qilingan. Asliyatda noaniq o'tgan zamon ishlatilgan, lekin tarjimada aniq o'tgan zamon bilan tarjima qilingan. Bu tarjima xatosi emas, lekin ba'zan yozuvchi ishlatyotgan zamonlarning ham o'ziga yarasha ma'nosi bo'lishi muminligini ham unutmaslik kerak. Bu gap quyidagicha tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi: U meni ko'rmagan edi. İkki do'stiga men haqimda shunday deyotgan edi:

Bu sefer iki polisin kolunda sorguya götürüldüm. [Aziz N. İt kuyruğu. 64].

Bu gal bir emas, ikki politsiyachi oyog'imni yerga tekkizmay o'tirgan joyimdan to'g'ri tergovga olib bordi. [Turkiy adabiyot durdonalari. 227].

Yuqoridagi gapning tarjimasiga to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi fikrlarni berishimiz mumkin bo'ladi. Umuman olib qaralganda asliyatdagi ma'no chiqarib berilgan, lekin ba'zi joylarda sal boshqacharoq ma'nolar yuzaga kelgan. Masalan: "Kolunda" – "oyog'imni yerga tekkizmay" shaklida tarjima qilingan. Bu yerda tarjimon juda erkin yondashgan. "Kolunda" so'zi "qo'lida" degan ma'noni bildiradi. "Oyog'imni yerga tekkizmay" iborasi esa qahramonning majburan, ehtimol ko'tarib olib ketilganini tasvirlaydi. Bu tarjima asl matndagi "qo'lidan ushlab olib ketish" kabi oddiyroq vaziyatni keskinlashtiradi va ma'noni buzadi. Qahramonning aynan ko'tarib olib ketilgani haqida asl matnda hech qanday ishora yo'q. "O'tirgan joyimdan to'g'ri" qo'shimchasi esa asliyat matnda "o'tirgan joyimdan to'g'r" degan ma'no yo'q. Bu tarjimoning o'z tasavvuridan kelib chiqqan qo'shimcha bo'lishi mumkin. Bu tarjimaning aniqligini pasaytiradi. Tarjima umumiy mazmunni yetkazishda muvaffaqiyatli bo'lgan bo'lsa-da, ayrim nozik detallarda sezilarli kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Ayniqsa, "bu sefer" iborasining noto'g'ri tarjimasi va "kolunda" so'zining

²⁰ Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalalariga doir.
– Toshkent: Fan, 1961. – B. 18.

“oyog‘imni yerga tekkizmay” kabi keskin va asliyat matnga zid tarzda tarjima qilinishi tarjimaning sifatini pasaytiradi. Tarjimon asliyat matnga sodiq qolishi va so‘zma-so‘z tarjimadan chetga chiqishda ehtiyot bo‘lishi kerak edi. "Bu sefer ikki politsiyachining qo‘lida so‘roqqa olib ketildim" kabi soddaroq va aniqroq tarjima asliyatdagi ma‘noni yaxshiroq ifodalagan bo‘lardi.

Bu sefer de paçamı kurtarmıştım. Artık, süttten ağzı yanan adamın ehtiyatkarlığı ile, havadan, sudan, hatta suya sabuna dokulur korkusu ile yalnız havadan yazılar yazıyordum. Kıymetli dostum yine benden tenkitlerini esirgemiyordu. Gıyabımda: [Aziz N. İt kuyruğu. 64].

Bu safar jazodan omon qoldim. Sutdan og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi, deganlaridek, endi ancha ehtiyot bo‘lib, yo‘q narsalarni yozib yurdim. Eshitsam, aziz do‘stim yana mendan rozi emasmish. [Turkiy adabiyot durdonalari. 227].

Tarjima umumiy ma‘noda asl matndagi vaziyatni to‘g‘ri yetkazgan. Qahramonning bu safar ham qandaydir muammodan qutulgani, endilikda ehtiyotkor bo‘lib, bema‘ni mavzularda yozayotgani va do‘stining undan norozi ekani tushunarli. "Paçamı kurtarmıştım" - "jazodan omon qoldim" shaklida tarjima qilingan. "Paçamı kurtarmak" iborasi "qutilish", "xalos bo‘lish" ma‘nolarini anglatadi va "jazodan omon qoldim" tarjimasi bu ma‘noni yaxshi ifodalaydi. "Sütten ağzı yanan adamın ihtiyatkarlığı ile" - "Sutdan og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi, deganlaridek, endi ancha ehtiyot bo‘lib" tarjimasi: Bu yerda tarjimon maqolni o‘zbek tilidagi ekvivalentiga ("Sutdan og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi") moslab tarjima qilgan. Bu madaniy moslashuvning yaxshi namunasi hisoblanadi va o‘quvchiga ma‘noni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. V.N. Komissarovning ta‘kidlashicha, "tarjimada ekvivalentlikka erishish madaniy kontekstni hisobga olishni talab etadi" . "Havadan, sudan, hatta suya sabuna dokulur korkusu ile yalnız havadan yazılar yazıyordum" - "yo‘q narsalarni yozib yurdim" shaklida tarjima qilingan. Bu qismda tarjimon asl matndagi metaforik ifodani qisqartirib, umumiy ma‘noni ("bema‘ni narsalar yozish") bergan. Bu o‘quvchi uchun tushunarliroq bo‘lishi mumkin, ammo asl matndagi boy obrazlilik yo‘qolgan.

"Kıymetli dostum yine benden tenkitlerini esirgemiyordu" - "Eshitsam, aziz do‘stim yana mendan rozi emasmish" shaklida tarjima qilingan. Bu yerda "tenkitlerini esirgemiyordu" ("tanqidlarini ayamayotgan edi") iborasi "yana mendan rozi emasmish" ("yana mendan norozi emish") deb tarjima qilingan. Bu tarjima umumiy ma‘noni ifodalasa-da, "tanqid" so‘zining aniqligi yo‘qolgan. Norozilik tanqidning bir shakli bo‘lishi mumkin, ammo har doim ham aynan tanqidni anglatmaydi. Asl matnda qahramonning naqadar ehtiyotkor bo‘lib qolgani, hatto eng beozor mavzulardan ham (havo, suv) zarar yetishidan qo‘rqib, faqat mavhum narsalar haqida yozayotgani kuchliroq ifodalangan. Tarjimada bu noziklik yo‘qolgan. J.-P. Vinay va J. Darbelnetning fikricha, "metaforalarni tarjima qilishda tarjimon maqsadli tilda

ekvivalent obraz topishga harakat qilishi kerak, aks holda ma'no yo'qolishi mumkin". Tarjima umumiy mazmunni yetkazishda yaxshi ish bajargan bo'lsa-da, asl matndagi ba'zi nozikliklar va obrazlilik yo'qolgan. Maqolning muvaffaqiyatli tarjimasi alohida e'tirofga loyiq. Biroq, metaforik ifodaning soddalashtirilishi va "tenkit" so'zining noaniq tarjimasi tarjima sifatiga ta'sir qilgan. Tarjimon asl matndagi uslubiy xususiyatlarni saqlab qolishga ko'proq e'tibor qaratishi lozim edi.

Xulosa: Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, Aziz Nesinning "It kuyruğu" asaridan olingan parchalar tarjimasida ma'noni yetkazishga harakat qilingan bo'lsa-da, bir qator muhim kamchiliklar mavjud. Tarjimon ba'zi o'rinlarda yozuvchining uslubini, personajlarning jonli nutqini, ibora va metaforalarning nozik ma'nolarini to'liq saqlab qola olmagan. Xususan, personaj nutqidagi emotsionallik va uslubiy xususiyatlarning yo'qolishi, "kan ağlamak" kabi aniq ma'noga ega bo'lgan iboraning boshqa ibora bilan almashtirilishi, asl matnda bo'lmagan iboralarning qo'shilishi, zamon shakllaridagi farqlar va "kolunda" so'zining noto'g'ri tarjimasi kabi holatlar tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Tahlilda keltirilgan G'.Salomov va boshqa tarjimashunos olimlarning fikrlari shuni tasdiqlaydiki, badiiy tarjima nafaqat so'zma-so'z ma'noni yetkazishni, balki asl asarning uslubini, madaniy kontekstini va nozik ma'nolarini saqlab qolishni talab etadi. Tarjimonning ba'zi o'rinlardagi mahorati ko'rinsa-da, umumiy olganda, ushbu tarjimada asliyatga sodiqlik va uslubiy aniqlik yetishmaydi. Kelgusida bunday asarlarni tarjima qilishda personaj nutqining o'ziga xosligiga, ibora va metaforalarning ekvivalentlarini topishga va yozuvchi uslubini saqlab qolishga ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXARI:

1. Salomov G'. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
2. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (o'quv qo'llanma). – T.: 2014. 272 b
3. Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi // Badiiy tarjima – do'stlik quroli (Maqolalar to'plami). – Toshkent, 2017. 33–34-betlar.
4. Aziz Nesin. İt kuyruğu. – İstanbul: Türkiye Ticaret Matbaası, 1955. – 129 s.
5. Önal Mehmet. Edebi dil ve üslup. – Erzurum: Atatürk üniversitesi, Türkiyat araştırmalar enstitüsü dergisi, 2008. – 210 s.
6. Durmuş İsmail. Üslup cilt II. – İstanbul: TDV İslam ansiklopedisi, 2012. – 96 s.
7. Çoban Ahmet. Edebiyatta üslup üzerine. – Ankara: Akçağ, 2004. – 160 s.

8. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyati: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1993. – 297 b.
9. Turkiy adabiyot durdonalari. Aziz Nesin. – Toshkent, 2022. – 442 b.
10. Hamidov X. O'zbek-turk tarjimachiligining dolzarb muammolari. – Toshkent: 2019. – 128 b.
11. Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. – Toshkent, 2017. – 128 b.
12. Hamidov X. O'bekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. – Toshkent: ToshDSHI, 2014. – 148 b.